

AUTIZM SINDROMILI BOLALAR

Andijon Pedagogika Instituti o`qituvchisi

Jo'raxo'jayev Muhammadaziz Andijon Pedagogika

Instituti MTT fakulteti logopediya yo'nalishi

talabasi Usmonova Sarvinoz

***Annotatsiya** Ushbu maqola autizm sindromli bolalar haqida tushunchani kengroq yuritishga harakat qiladi. Autizm kasallikmi yoki ruhiy holatmi? Autizm bolalari belgilari, diagnostikasi va davolash usullari, autizm bolalarning muloqot ko'nikmalari degan ko'plab muammolarni yechimini topishga harakat qiladi.*

***Kalit so'zlar** : Autizm bemorlari, defektologiya va logopediya, autizm spektrining buzilishi (ASB), rivojlanishning kechikishi, ijtimoiy muloqot muammolari, oilaviy qo'llab quvvatlash, ta'lim muhitini yaratish, erta aniqlash va diagnostika, ota-onalar uchun maslahatlar va qo'llab quvvatlash.*

Kirish Autizm qanday kasallik? Autizm miyaning rivojlanishi yoki ishlashidagi buzilish natijasida yuzaga keladi. Odatda autizmning dastlabki belgilari 2 yoshli bolalarda namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda, bu kasallik tug'ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Kasallik o'g'il bolalarda qizlarga qaraganda 4 baravar ko'proq aniqlanadi. Asosiy qisim. Autizm miyaning rivojlanishi yoki ishlashidagi buzilish natijasida yuzaga keladi. Odatda autizmning dastlabki belgilari 2 yoshli bolalarda namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda, bu kasallik tug'ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Kasallik o'g'il bolalarda qizlarga qaraganda 4 baravar ko'proq aniqlanadi. Bolalarda autizmning sabablari Bolalarda autizmning sabablari hali ham noma'lum, ammo kasallikning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan gipotezalar ro'yxati ishlab chiqilgan va klinik jihatdan tasdiqlangan:

- genetik moyillik;
- homiladorlik paytida homila mutatsiyalari;
- ba'zi vaktsinalarning oqibatlari (gipoteza inkor etib bo'lmaydigan tasdiqni topmagan);
- rivojlanish paytida homilaning va hayotning birinchi oylarida bolaning miyasi shikastlanishi ;
- axborot blokadasini tufayli idrokning buzilishi;
- miya yarim sharlarining o'zaro ta'sirining buzilishi;
- tanadagi serotoninning noto'g'ri almashinuvi;
- xomilaning rivojlanish bosqichida
- xromosomada izdan chiqish holatlari; ona qornida rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan tug'ma nuqsonlar. Autizmning deyarli barcha holatlarida kasallik bolalik davrida aniqlanadi. Vaqt o'tishi bilan kasallikning namoyon bo'lishi va alomatlari o'zgarmaydi va rivojlanmaydi, ular shunchaki autizmga chalingan bola balog'at yoshiga etganida sezila boshlaydi. Ammo kamdan-kam hollarda autizm balog'at yoshida paydo bo'lishi mumkin. Kattalardagi autizm-bu miya tuzilishidagi jiddiy o'zgarishlar bilan birga keladigan ijtimoiy o'zaro ta'sirning izdan chiqishi. Voyaga yetgan kasallik atipik autizm deb ataladi. Ushbu yoshdagi autizmning sabablari ham to'liq tushunilmagan. Kasallikning rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qiladigan tasdiqlangan omillarning to'liq ro'yxati yo'q. Ammo kattalik davrida autizmning paydo bo'lishi tabiati to'g'risida bir qator nazariyalar mavjud. Sabab bo'lishi mumkin: Bolalarda autizm belgilari Erta bolalik autizmi quyidagicha namoyon bo'ladi: muloqot qilish istagi va tengdoshlariga qiziqish yo'qligi; atrofdagi odamlarning borligi va hissiyotlariga e'tibor bermaslik;; rivojlanishning dastlabki bosqichi uchun normal bo'lgan taqlid funksiyasining yo'qligi. Bolalar ota-onalarining yuz ifodalarini takrorlashmaydi, javoban tabassum qilmaydi, kattalarning imo-ishoralari takrorlamaydi yoki ongli ravishda qilmaydi;bolalar o'zlarining muammolari va fikrlarini ota-onalari bilan bo'lishmaydilar. Nutqidagi muammolar Nutqning yetishmasligi,yuz ifodalar mimikalarni yetishmasligi,bola ko'z bilan aloqa qilishdan qochishligi ,bola

ibiralarni yoki so'ragan so'zingizni takrorlaydi (to'tiKattalarda autizm belgilari nutqdagi fonetik buzulishlar,asabiy xatti-xarakterlar,begonalashish,bola yolg'iz òynashni yoqtirishi,bola bitta o'yinchoqqa boĝlanib u bilan ajralmay qolishligi:u doim shu ôyinchoqni ushlab yurishi va hokazo. Kattalardagi autizm belgilari kasallikning shakliga va uning kechishiga qarab farq qilishi mumkin. Bunga xos alomatlar quyidagilar hisoblanadi: yuz ifodalarining kamligi va imo-ishoralarning yetarli emasligi; jamiyatda qabul qilingan aloqa qoidalarini tushunmaslik; atrofdagi odamlarning his - tuyg'ulari, motivlarini tushunmaslik; o'z xatti-harakatlarini tushunmaslik; atrofdagi odamlar bilan do'stona yoki boshqa yaqin munosabatlarni o'rnatish imkoniyatining yo'qligi; biror kishiga murojaat qilish qiyinligi; so'z boyligi yetarli emas, bir xil iboralarni muntazam takrorlash; tanish muhitda xotirjamlikni saqlash qobiliyati va unda biroz o'zgarishlar bo'lsa bezovtalanish; joylar va narsalarga bog'lanish va ularda o'zgarish sodir bo'lsa bezovtalanish;. kabi). Autizmni davolash Autizmni davolashda erta tashxis qo'yish va davolash katta ahamiyatga ega.Davolashdan maqsad autizmli shaxsning ijtimoiy va individual qobiliyatlarini yaxshilashdan iborat. Shu maqsadda xulq-atvorni tarbiyalash va maxsus terapiya qo'llaniladi. Qo'llaniladigan davolanishning oilaga mos bo'lishi ham muhimdir. Nutq terapiyasi, vosita mahoratini oshirishga qaratilgan terapiya, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini egallashga qaratilgan terapiya qo'llaniladigan muolajalar qatoriga kiradi. Dori-darmonlar depressiya, diqqat etishmasligi-giperaktivlik kabi autizmga hamroh bo'lgan sharoitlarda qo'llanilishi mumkin.Autizmni davolashda ota-onalarning ta'limi ham juda muhimdir. Autizmli oilalarni qo'llab-quvvatlovchi yuridik nodavlat tashkilotlar mavjud. O'zbek jamiyatida autizm mavzusi bilan bog'liq salbiy tavsiflar, tasavvurlar ko'p. Autizmning keng jamoatchilik ichida noto'g'ri tushunilishi va talqin qilinishi, narrativlar, davlat, hukumatning autizm bilan bog'liq rehabilitatsiya ishlariga no'noqligi, ota-onalarning autizmning ilk belgilarini anglamasligi, jamiyat orasida autistik kishilarga nisbatan stigmalashgan qarashlar shular jumlasidandir.Bular ichida eng birinchi navbatda ahamiyat berilishi zarur bo'lgan masala bu ota-onalarning

autizmning ilk belgilaridan xabarsizligi muammosidir. Chunki, yuqorida aytilganidek, hech kim autizmli farzandni dunyoga keltirishdan «himoyalalmagan». Autizmning ilk belgilarini payqashga yomg'irda soyabon ochishga tayyor bo'lgandek tayyor bo'lish kerak. Xulosa. Xulosa. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlashda: – majmuaviylikka, ya'ni ota-onalarning pedagoglar, psixologlar va shifokor psixiatrlar bilan muntazam ravishda o'zaro harakat qilishlariga e'tibor qaratish zarur; asosiy sa'y-harakat emotsional sohani korreksiyalashga, bolani emotsional jihatdan yaxshilashga yo'naltirilishi darkor. Foydalanilgan adabiyotlar Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati